

## **2018 yil yanvar-aprel oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari**


2018 yilning yanvar – aprel oyida Samarqand viloyatida 778,6 mlrd. so’mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o’sish sur’ati o’tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 100,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 12,3 mlrd. so’mni tashkil etib, o’sish sur’ati 2,2 martaga o’sdi.



Jami qurilish ishlaringin hajmidan kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi qurilish ishlaringin 54,2 foizini tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo’ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo’llarini ta’mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob’yeqtлari (mekteblar, muktabgacha ta’lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o’z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

## **Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishhlari**



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 771,1 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 99,0 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 0,2 bandga oshdi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 7,5 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmining 1,0 foizini tashkil qildi.



2018 yilning yanvar – aprel oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 632,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 1,8 bandga kamayib, 98,2 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 0,03 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 bandga kamayib, 0,2 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 93,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,6 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 7,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 55,8 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 45,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,5 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 0,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,1 foizni tashkil qildi.